

# Qurilish ishlari


## RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi - **103,8 mlrd. so'm**
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **6,3 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **59,1 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi - **34,6 foiz**


Joriy yilning yanvar oyi bo'yicha Surxondaryo viloyatida 103,8 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi va 2017 yilning yanvariga nisbatan 4,1 foiz punktga ko'paydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 6,6 mlrd.so'mni yoki 165,0 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,1 foiz punktga oshdi.


## Qurilish ishlari



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)




Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 44,7% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,8 ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurishi, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, mакtabgacha ta'lim muassalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.




## Mulkchilik shakllari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 101,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 102,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 foiz punktiga ko'paydi.



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish bo'limi

Sh.Gaipov  
(0371)230-85-81